

Demografik tahlil

Toshkent viloyatining demografik holati


I. Doimiy aholi soni.

Toshkent viloyatining doimiy aholisi soni 2018 yil 1 yanvar holatiga 2898,7 ming. kishini tashkil etib, 2000 yilga nisbatan 491,0 ming. kishiga, ya'ni 20,7 foizga o'sgan (1-jadval).


1-jadval

Toshkent viloyati doimiy aholisi soni to'g'risida ma'lumot (yil boshiga; ming kishi)


	2001 yil		2018 yil		2018 yilning 2001 yilga nisbatan farqi	
	soni	ulishi, %	soni	ulishi, %	+, -	%
Jami aholi soni	2370,2	100,0	2898,7	100,0	528,5	120,7
shu jumladan:						
erkaklar	1176,7	49,6	1451,5	50,0	274,8	123,4
ayollar	1193,5	50,4	1447,1	50,0	253,6	121,2



1-rasm - Tashkent viloyati doimiy aholisining jinsi bo'yicha tarkibi
(01.01.2018 yil uchun)




2-rasm - Toshkent viloyati doimiy aholisi soni (ming kishi)



3-rasm - Toshkent viloyati шахар tumanlar bo'yicha doimiy aholisi soni (ming kishi)

(01.01.2018 yil uchun)

Mazkur yillarda Toshkent viloyati aholisining joylashuvi bo'yicha tarkibida ham sezilarli o'zgarishlar kuzatilgan, ya'ni 2000 yilda shahar aholisining jami aholi sonidagi ulushi – 40,1 foizni tashkil etgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2005 yilda – 39,3 foizni, 2010 yilda – 49,5 foizni, 2015 yilda – 48,8 foizni, 2018 yil 1 yanvar holatiga kelib esa – 24,5 foizni tashkil etdi (4-rasm).



4-rasm - Toshkent viloyati doimiy aholisining joylashuvi bo`yicha taqsimlanishi (foizda)


Toshkent viloyati aholisining 2001-2018 yillarda yosh tarkibida ham sezilarli o`zgarishlar kuzatilgan.

Jumladan, 2001 yilda mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar (0-15 yoshdagilar) ulushi 36,8 foizni, mehnatga layoqatli yoshdagilar (erkaklar 16-59 yosh, ayollar 16-54 yosh) 54,5 foizni, mehnatga layoqatli yoshdan kattalar (erkaklar 60 yosh va undan katta, ayollar 55 yosh va undan katta) 8,7 foizni tashkil etgan.

2018 yil 1 yanvar holatiga mazkur ko`rsatkichlar mos ravishda 28,6 foiz, 59,4 foiz va 12,0 foizni tashkil etgan (2-jadval).

**Toshkent viloyati doimiy aholisining yosh tarkibi to`g`risida
ma`lumot**
(yil boshiga; ming kishi)

	2001 yil		2018 yil		2018 yilning 2001 yilga nisbatan farqi	
	soni	ulishi, %	soni	ulishi, %	soni	ulishi, %
Jami aholi soni	2370,2	100,0	2898,7	100,0	491	122,3
shu jumladan:						
mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar	873,3	36,8	827,9	28,6	-45,4	94,8
mehnatga layoqatli yoshlar	1292,9	54,5	1723,0	59,4	430,1	133,3
mehnatga layoqatli yoshdan kattalar	204	8,7	347,6	12,0	143,6	170,4



5-rasm - Toshkent viloyati doimiy aholisining yosh bo'yicha tarkibi

(01.01.2018 yil uchun; foizda)

2017 yilda 2001 yilga nisbatan mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar ulushi kamayish tendentsiyasiga ega bo'lgan bo'lsa, mehnatga layoqatli yoshdagilar va mehnatga layoqatli yoshdan kattalar ulushi esa o'sgan.

Toshkent viloyati bo'yicha 2001 yilda aholining o'rtacha yoshi 26,3 yoshni tashkil etgan bo'lsa, 2018 yilga kelib bu ko'rsatkich 30,3 yoshni tashkil etmoqda, ya'ni Toshkent viloyati aholisining o'rtacha yoshi 4 yoshga keksayganligini kuzatish mumkin.

II. Aholining tabiiy harakati.


Aholining tabiiy harakati ko'rsatkichlarida ham o'zgarishlar kuzatilib, 2000 yilda Toshkent viloyatida 43,8 ming nafar bola tug'ilgan bo'lib, 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsienti 18,5 promilleni, mazkur yilda 15,3 ming kishi vafot etgan bo'lib, 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsienti 6,4 promilleni tashkil etgan bo'lib, aholining tabiiy o'sishi 459,1 ming kishiga, ya'ni 1000 aholiga nisbatan aholining tabiiy o'sish koeffitsienti 12,1 promilleni tashkil etgan.

Quyidagi jadvalda Toshkent viloyati aholisining tabiiy harakati ko'rsatkichlari keltirilgan (3-jadval)

Toshkent viloyati aholisining tabiiy harakati ko`rsatkichlari to`g`risida ma`lumot


(ming kishi)

	2000y.		2010y.		2016y.		2018y.	
	soni	1000 aholiga nisbatan	soni	1000 aholiga nisbatan	soni	1000 aholiga nisbatan	soni	1000 aholiga nisbatan
Tug'ilganlar	43,8	18,5	54,8	20,8	57,1	20,3	59,3	20,6
O'lganlar	15,3	6,4	15,4	5,8	16,3	5,8	16,3	5,7
Aholining tabiiy o'sishi	28,5	12,1	39,4	15,0	40,9	14,5	43,0	14,9
Tuzilgan nikohlar, ming birlik	14,6	6,2	24,2	9,2	21,4	7,6	25,1	8,7
Nikohdan ajralishlar, ming birlik	2,6	1,1	2,0	0,8	3,3	1,2	3,7	1,3




6-rasm - Tashkent viloyati bo'yicha tug'ilganlar soni

(yilda; ming kishi)



7-rasm - Tashkent viloyati bo'yicha o'lganlar soni

(yilda; ming kishi)



8-rasm - Toshkent viloyati aholisining tabiiy o'sishi

(yilda; ming kishi)

1. Tug`ilganlar soni.


Toshkent viloyatida 2018 yilda 59,3 ming nafar bola tug`ilganligi qayd etilgan bo`lib, 1000 aholiga nisbatan tug`ilish koeffitsienti 20,6 promilleni tashkil etgan.

2. O`lganlar soni.

Toshkent viloyatida 2018 yilda 16,3 ming kishining vafot etganligi qayd etilib, 1000 aholiga nisbatan o`lim koeffitsienti 5,7 promilleni tashkil etgan.

Toshkent viloyatida 2000 yilda 15,3 ming kishi, 2005 yilda 16,8 ming kishi, 2010 yilda 15,4 ming kishi vafot etgan bo`lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o`lim koeffitsienti 6,4 promille, 6,8 promille, 5,8 promilleni tashkil etgan.

Toshkent viloyatida onalar o`limi ko`rsatkichi ham pasayish tendentsiyasiga ega bo`lib, 100 000 tug`ilgan bolaga nisbatan 2000 yilda onalar o`limi koeffitsienti 27,5 ni tashkil etgan bo`lsa, 2005 yilda 43,2 ni, 2010 yilda 32,8 ni, 2015 yilda 44,3 ni va 2018 yilda esa 27,0 ni tashkil etdi (10-rasm).




10-rasm - Toshkent viloyati bo`yicha onalar o`limi ko`rsatkichi

(100 000 tug`ilgan bolaga nisbatan)

Viloyatda 2018 yilda bir yoshgacha o`lgan bolalar soni 0,5 ming nafar bolani tashkil etib, 1000 tug`ilgan bolaga nisbatan go`daklar (1 yoshgacha bolalar) o`limi koeffitsienti 9,5 promilleni tashkil etgan.

Viloyatda 1000 tug`ilgan bolaga nisbatan go`daklar (1 yoshgacha bolalar) o`limi koeffitsienti 2000 yilda 19,6 promilleni, 2005 yilda 15,4 promilleni, 2010 yilda 11,0 promilleni tashkil etgan (11-rasm).




11-rasm - Toshkent viloyati bo`yicha go`daklar va bolalar o`limi ko`rsatkichlari
(1000 tug`ilgan bolaga nisbatan; promille)

Viloyatda 2018 yilda besh yoshgacha o`lgan bolalar soni 0,7 ming nafarni tashkil etib, 1000 tug`ilgan bolaga nisbatan bolalar (5 yoshgacha) o`limi koeffitsienti 12,0 promilleni tashkil etgan.

Viloyatda 1000 tug`ilgan bolaga nisbatan bolalar (5 yoshgacha) o`limi koeffitsienti 2000 yilda 26,9 promilleni, 2005 yilda 22,0 promilleni, 2010 yilda 14,7 promilleni tashkil etgan.

3. Tug`ilishda kutilgan umr davomiyligi.

Aholining yashash sifati ko`rsatkichlaridan biri bu tug`ilishda kutilgan umr davomiyligi hisoblanadi. Viloyatda 2018 yilda mazkur ko`rsatkich 74,0 yoshni (ayollarda - 76,9 yosh, erkaklarda - 71,1 yosh) tashkil etgan (12-rasm).




12-rasm - Toshkent viloyati bo`yicha tug`ilishda kutilgan umr davomiyligi (yosh)

Tug`ilishda kutilgan umr davomiyligi ko`rsatkichi so`nggi yillarda o`shish tendentsiyasiga ega bo`lib, jumladan 2000 yilda ushbu ko`rsatkich 70,0 yoshni tashkil etgan bo`lsa, 2005 yilda 70,1 yoshni, 2010 yilda 71,7 yoshni tashkil etgan.

4. Tuzilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar.

Viloyatda bo`yicha 2018 yilda 25,1 mingta nikoh qayd etilgan bo`lib, 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti 8,7 promilleni tashkil etgan (13-rasm).




13-rasm - Toshkent viloyati bo`yicha nikoh tuzish va nikohdan ajralish koeffitsientlari

(1000 aholiga nisbatan; promille)

Viloyatda 2000 yillarda birinchi marta nikoh qurgan qiz bolalarning o`rtacha yoshi 21,8 yoshni tashkil etgan bo`lsa, 2018 yilda bu ko`rsatkich 23,2 yoshni tashkil etdi, ya`ni 1,4 yoshga ko`paydi.

Viloyatda 2000 yillarda birinchi marta nikoh qurgan o`g`il bolalarning o`rtacha yoshi 24,8 yoshni tashkil etgan bo`lsa, 2018 yilda ushbu ko`rsatkich 26,9 yoshni tashkil etdi, ya`ni 2,1 yoshga ko`paydi (14-rasm).



14-rasm - Toshkent viloyati bo`yicha ilk bor nikoh tuzuvchilarning o`rtacha yoshi

(yosh)

Viloyatda bo`yicha 2018 yilda 3,7 mingta nikohdan ajralish qayd etilgan bo`lib, o`tgan yilga nisbatan 0,3 mingtaga kamaygan. 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsienti esa 1,3 promilleni tashkil etgan.

2000 yilda viloyatda 2,6 mingta nikohdan ajralish qayd etilgan bo`lib, 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsienti 1,1 promilleni tashkil etgan. Keyingi yillarda nikohdan ajralishlar soni kamayib borish tendentsiyasiga ega bo`lib, 2013 yildan boshlab yana o`shish kuzatilgan.